

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01.RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAFAROV AZAMAT MAMATALI O'G'LI**

**KARBAMID - FORMALDEGID KONSENTRATI ASOSIDA  
IZOSIYANATSIZ USULDA POLIURETAN OLIH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.14-Organik moddalar va ular asosidagi materaillar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AFTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**  
**Contents of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD) on technical science**

**Safarov Azamat Mamatali o‘g‘li**  
Karbamid-formaldegid konsentrati asosida izosiyanatsiz usulda poliuretan olish texnologiyasini ishlab chiqish.....3

**Сафаров Азамат Маматали ўғли**  
Разработка технологии получения полиуретана безизоцианатным методом на основе карбамидоформальдегидного концентрата.....21

**Safarov Azamat**  
Development of a technology for producing polyurethane using an isocyanate-free method based on urea-formaldehyde concentrate.....35

**E‘lon qiingan ilmiy ishlar ro‘yxati**  
Список опубликованных работ  
List of published works.....39

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01.RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SAFAROV AZAMAT MAMATALI O'G'LI**

**KARBAMID - FORMALDEGID KONSENTRATI ASOSIDA  
IZOSIYANATSIZ USULDA POLIURETAN OLISH  
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.14-Organik moddalar va ular asosidagi materaillar texnologiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AFTOREFERATI**

**Termiz – 2025**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2025.3.PhD/T5838 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.termizdu@umail.uz](http://www.termizdu@umail.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Aliqulov Rustam Valiyevich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sottiqulov Elyor Sotimboyevich**  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Eshmurodov Xurshid Esanberdiyevich**  
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 raqamli ilmiy kengashning « 30 » XII 2025-yil soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ \_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 16 » XII kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 16 » XII dagi 35- raqamli reyestr bayonnomasi).



**I.A.Umbarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

**Sh.A.Kasimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., prof.

**L.S.Kamolov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi k.f.d., prof.

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyoda polimerlar kimyosi va kompozitsion materiallar texnologiyasida xavfsiz, ekologik barqaror, yuqori ekspluatatsion xossalarga ega bo'lgan, avtomobilsozlik, sanoat texnikalari, qurilish, radioelektrotexnika, maishiy texnika va boshqa qator tarmoqlarda qo'llaniladigan qattiq uretansaqlovchi elastomerlar olishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. An'anaviy poliuretanlar ishlab chiqarish jarayonida keng qo'llaniladigan di- va poliizosiyanatlar toksikligi, ish jarayonida xavfsizlik choralari kuchaytirishni talab qilishi hamda ishlab chiqarish tannarxiga sezilarli ta'siri sababli ularni muqobil reagentlar bilan almashtirish muhim ilmiy-texnik vazifa hisoblanadi. Shuning uchun, izosianatsiz uretan guruhlariga ega oligomerlarni olish texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda poliuretan polimerlarining funksional xossalarini yanada yaxshilash, ularni ishlab chiqarishning ekologik xavfsiz va samarali texnologiyalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada an'anaviy di- va poliizosiyanatlardan foydalanmasdan uretan guruhlarini hosil qiluvchi oligomerlarni sintez qilishning yangi, izosianatsiz kimyoviy transformatsiya usullarini ishlab chiqish, karbamid-formaldegid konsentratini, glitserin, karbamid va formalin asosida izosianatsiz uretanli oligomerlar olish texnologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yo'nalishida muayyan natijalarga erishilmoqda, jumladan mahalliy bozorni import o'rnini bosuvchi kimyoviy reagentlar bilan ta'minlash sohasida keng ko'lamli qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida"<sup>1</sup> iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zgartirish masalalari alohida belgilab qo'yilgan. Bu borada milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, jumladan, kimyo sanoatini rivojlantirishda, poliuretan polimer materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha yuqori samarali va ekologik toza texnologiyalarni yaratish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 7- fevraldagi "2017-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2022 yil 28-son PQ-3236-son qarorlari, "2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 2021 - yil 23-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining kimyo sanoatini jadal rivojlantirish to'g'risida"gi 2018-yil 25-

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

oktyabrda PQ-3983-son qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnikasini rivojlantirishning VII "Kimyoviy texnologiyalari va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Uretan guruhlarini o'z ichiga olgan oligomerlar sintezini rivojlantirish va karbamid formaldegid asosida poliuretan polimer materiallarini ishlab chiqarish muhim hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu muammoni hal qilish ko'plab xorijiy olimlardan Otto Bayer, Bernhard Tollens, Carl Goldschmidt, Rashedul Hasan, Farhana Momotaz, Fatema Tuz Johura, Jingbiao Song, Yan Han, Xiaoxing Yan kabi bir qator xorijiy olimlar tadqiqotlar olib borganlar.

Zamonaviy o'zbek olimlari ham bu ilmiy yo'nalishda munosib o'rin egallab kelmoqda. Xususan akademik A.T. DJalilov va uning shogirtlari X.X. Turayev, F.N. Nurqulov, Sh.N. Qiyomov, R.V. Alikulov, A.F. Shodiyev, F.A. Magrupov, M.G'. Alimuxamedov, R.I.Adilov, M.S.Xatamova, G'.N.Kudratov va boshqa olimlarning so'nggi yillarda olib brogan ilmiy izlanishlar natijasida yangi poliuretanlar sintezi va ularni amalyotga joriy etish bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishildi. Ilmiy izlanishlar natijasida avtomobilsozlik, sanoat texnikalari, qurilish, radioelektrotexnika, maishiy texnika va boshqa qator tarmoqlarda qo'llaniladigan qattiq uretansaqlovchi elastomerlar, poliuretan va epoksiuretanlar uchun poliaminlar, poliollar, poliizosiyanatlar va turli epoksi oligomerlar sintez qildi.

Shu bilan birga, poliuretan polimerlarning mo'rtligi va yorilishga chidamliligini oshirish hamda issiqqa chidamli, kimyoviy va ikki qatlamli ko'pikli poliuretanlar ishlab chiqarish maqsadida uretan polimerlaridan ustun bo'lgan yangi karbamid-formaldegid konsentrati asosida polimer materiallarini yaratish uchun oligouretan sintezining yangi texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

**Tadqiqotlarning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Surxondaryo viloyatida neft-gaz sanoati korxonalarini chiqindi oltingugurti asosida modifikatsiyalangan oltingugurtli beton mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish" (2021 yil) va MU-FZ-201910142 "Minerallashgan quvur, fitting, panel va pol qoplamalari ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyasini yaratish" (2020-2022 y.y.) mavzularidagi tijoratlashtirish va innovatsion loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** karbamid-formaldegid konsentrati asosida yangi turdagi poliuretanlar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

karbamid – formaldegid konsentrati va gletsirin asosida yangi turdagi oligouretan sintez qilishning maqbul sharoitlarini aniqlash;

sintez qilingan oligouretan asosida yangi turdagi poliuretan polimerlarini olish texnologiyasini ishlab chiqarish;

sintez qilingan oligouretanning tarkibi, tuzilishi, adgezion va xossalarini fizik-kimyoviy usullar yordamida aniqlash;

oligouretan oligomerlari asosida polimer kompozitsion materiallar olish va ularning fizik – mexanik xossalarini tadqiq qilish;

poliuretan polimerlarning korroziyaga qarshi, fizik-kimyoviy, deformatsiyaga chidamlilik xossalarini va tuzilishini aniqlash;

uretan saqlovchi elastomerlar asosida polimer kompozit materiallar yaratish va ularning fizik-mexanik xossalarini aniqlash;

karbamid – formaldegid konsentrati va gletsirin ishtirokida yangi turdagi oligouretan olish texnologiyasini ishlab chiqish va olingan oligouretanni qo'llash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida glitserin, karbamid, formaldegid, karbamid formaldegid konsentrati, ftal angidrid, basalt olingan.

**Tadqiqotning predmeti** karbamid va karbamid formaldegid konsentrati asosida uretan saqlovchi ligouretanlar olishning optimal sharaotini ishlab chiqish, oligouretanlarning ftal angdrid bilan o'zaro ta'siri, hosil bo'lgan poliuretan polimerlari hamda uretan saqlovchi elastomerlar va ular asosidagi polimer kompozit materiallarining fiziko-mexanik va kimyoviy xossalarini aniqlash jarayonlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada, infraqizil (IQ) va mass-spektroskopiya, termogravimetriya (TG) hamda differensial termik tahlil (DTA) natijalari, deformatsiya va mustahkamlik tahlillari, hamda skanerlovchi elektron mikroskopiya kabi zamonaviy eksperimental tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotining ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

karbamid-formaldegid konsentrati, glitserin, karbamid va formalin asosida uretan guruhlari saqlovchi yangi turdagi oligomerlar sintez qilish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

sintez qilingan oligouretanlar va ftal angidridning o'zaro reaksiyasi asosida yuqori yopishqoqlik, korroziyaga chidamlilik va deformatsion mustahkamlikka ega bo'lgan yangi bog'langan oligouretan-ftalli kompozitsion materiallar olish usuli ishlab chiqilgan;

oligouretanlarning ftal angidrid bilan kimyoviy reaksiyasi jarayonida reaksiya mahsulotlarining tabiati matritsa sifatida poliuretanlarni qo'llash imkoniyatiga ta'sir qilmasligi isbotlangan va poliuretan asosidagi to'ldirilgan yangi kompozitlar olingan;

oligouretan asosidagi poliuretan konstruksiyalarining shakllanish mexanizmi va uretan guruhli oligomerlarning ftalliuretan polimerlarning ishqalanish koeffitsientiga ta'siri hamda yuk ortishi bilan ishqalanish koeffitsientining oshishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

karbamid - formaldegid konsentrati asosida izosiyanatsiz usulda tarkibida uretan guruhlari bo'lgan oligomerlarni ishlab chiqarish texnologiyasi yaratilgan;

sintez qilingan oligouretanlar va ftal angidrid asosida atmosfera va agressiv muhitga chidamli korroziyaga qarshi qoplamalar olishning ilmiy – amaliy asoslari ishlab chiqilgan;

uretan saqlovchi elastomer polimerlari va ular asosidagi polimer kompozit materiallarning termomexanik xususiyatlari aniqlangan;

bazalt bilan to'ldirilgan poliuretan polimer kompozit materiallari asosida korroziyaga qarshi qoplama ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Xulosalar va tavsiyalarni tasdiqlash hamda olingan birikmalarni aniqlash uchun yuqori informatsion zamonaviy kimyoviy, fizik-mexanik va fizik-kimyoviy tadqiqot usullaridan (IQ spektroskopiya, xromatografiya va mass-spektroskopiya hamda, skanerlovchi elektron mikroskop) foydalanilganligi, uretan oligomerlari, uretan saqlovchi elastomerlar, polimer kompozit materiallari va ular asosida qoplamalar chiqarish texnologiyalari ishlab chiqilganligi, ularni qo'llash tajriba va sanoat sinovlaridan o'tkazilganligi hamda so'ngra ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan asoslarga n.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati karbamid-formaldegid konsentrati, glitserin, karbamid va formalin asosida, izosianatsiz usulda uretan guruhlari bo'lgan oligomerlarni sintez qilish usullari ishlab chiqilganligi, sintez qilingan oliguretanlar va ftal angidrid asosida yuqori yopishqoqlik, korroziyaga chidamlilik va deformatsion mustahkamlikka ega bo'lgan yangi bog'langan oligourethan-ftalli kompozitsion materiallar olish usuli ishlab chiqilganligi, shuningdek, olingan birikmalarning tarkibi, tuzilishi va fizik-mexanik xossalari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati izosianatsiz usulda polimer kompozit materiallarni olish, fizik, mexanik, korroziya va ishqalanishga chidamlilik xususiyatlarga ega ilmiy asoslangan ishlab chiqarish usullarini takomillashtirish, shuningdek, olingan tadqiqot natijalari asosida yaxshilangan ekspluatatsion xususiyatlarga ega kompozitsion materiallar ishlab chiqarish, olingan oligourethanlar asosida polimer materiallari, korroziyaga qarshi qoplamalar va turli sanoat tarmoqlarida foydalanish uchun kompozit materiallar ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi:** Karbamid formaldegid konsentrati asosida izosianatsiz usulda poliuretan olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

karbamid - formaldegid konsentrati asosida izosianatsiz usulda poliuretan olish texnologiyasi "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ XK da poliuretan oligomerlar olishda amaliyotga joriy qilingan ("Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ XK ning 2025 yil 20 martdagi 09/1-179-son ma'lumotnomasi). Natijada, konveyer tasmalari uchun foydalanilayotgan 101-T1, 301-L, 101-L markali rezina qorishmalarni olishda qo'llaniladigan uretan saqlovchi elastomerlar olish imkoni yaratilgan;

olingan uretan saqlovchi elastomerlar "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ XK rezina qorishmalarni olishda amaliyotga joriy qilingan ("Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ XK ning 2025 yil 20 martdagi 09/1-179-son ma'lumotnomasi). Natijada konveyer tasmalarining ishlash samaradorligini oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi:** Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi:** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shulardan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 110 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari tavsiflangan, uning obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Poliuretanlarning olinishi va qo'llanilishi» deb nomlangan birinchi bobida izosiyantli va izosiyantsiz polimerlar, oligouretanlarning kimyoviy tarkiblari va fizik-kimyoviy xossalari, hamda olinishi va qo'llash usullarini o'rganish bo'yicha adabiyot materiallarining tahlili keltirilgan. Uretanli oligomerlar va poliuretan polimerlarning samaradorligi o'rganilgan.



Dissertatsiyaning "OU-350 va OU-450 navli oligouretanlarning sintezi va xossalari" deb nomlangan ikkinchi bobida sintez usullari tadqiq etilgan.

OU-350 oligouretan sintezi reaksiyasini o'tkazish. Kolba ichiga 100 g karbamid-formaldegid konsentratidan solinadi, qizdirgich ulanadi va termorele 85 °C ga rostlanadi hamda ohista aralashtirish mexanizmi yoqiladi va birozdan so'ng o'lchab olingan 18,7 g glitserin sekinlik bilan qo'shiladi reaksiya aralashtirgich tezligi oshiriladi hamda reaksiya 6 soat davom ettiriladi.

Reaksiya natijasida tiniq rangli quyuq holdagi sekin oquvchan oligouretan sintez qilinadi va harorat sekin pasaytirilib aralashtirilib turiladi

OU-450 uretan oligomeri sintezida avval mochevina va gliserin asosida diuretan olinadi. Aralashtirgich, teskari sovutgich va termometr bilan jihozlangan kolbaga 50 gramm mochevina solinadi va 95–100°C gacha qizdiriladi. Aralashtirish davomida reaksion massa harorati 100 °C dan pasaytirmagan holatda 31 gramm gliserin qo'shiladi. Gliserinning barcha belgilangan miqdorini quygach, reaksiya harorati 120 °C gacha ko'tariladi. Bunday haroratda reaksiya 30 daqiqa davom etadi. Keyin 15 daqiqa ichida harorat 120 °C dan 135-140 °C gacha ko'tariladi. Erishilgan haroratda reaksiya 2 soat davom etadi. Reaksiya yakunlangach, harorat 70 °C gacha pasaytiriladi va och jigarrang suyuq massa 30 - 40 daqiqa davomida aralashtirib turiladi.

OU-450 oligouretani sintezi. Formaldegid va qo‘shimcha mochevina bilan olingan diuretan reaksiyasi bo‘yicha uretan guruhlarini o‘z ichiga oluvchi oligomerlar olinadi. Avval eritma tayyorlab olinadi: 35 gramm mochevina formaldegidning kontsentratsiyasi 30 foiz bo‘lgan formalinning 190 gramida eritiladi va 10 ml 0,5 normalli natriy gidroksid eritmasi qo‘shiladi. Aralastirgich, teskari sovutgich, tomchili voronka va termometr bilan jihozlangan kolbaga avval olingan diuretan solinadi va 80 °C gacha qizdiriladi. So‘ngra aralastiruvchi moslama yoqiladi va tomizgich voronka orqali mochevinaning formalindagi avval tayyorlab qo‘yilgan eritmasini tomiziladi. Eritma reaksion massaga to‘liq quyilgach reaksion muhit harorati 40 daqiqa davomida 80 °C dan 130 °C gacha sekin ko‘tariladi. Reaksiya erishilgan haroratda 3 soat davom etadi.



**1-rasm. Reaksiya davomi OU-350 unumiga ta'siri.**  
 Reaksiya harorati: 1 – 60 °C;  
 2 – 80 °C; 3 – 90 °C.

**2-rasm. Reaksiya davomi OU-450 unumiga ta'siri.**  
 Reaksiya harorati: 1 – 110 °C;  
 2 – 130 °C; 3 – 150 °C.

Birinchi va ikkinchi rasmlarda oligouretanlar sintezi unumining harorat va reaksiyaning davomiyligiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Oligouretanlar sintezining borish vaqti va optimal harorati aniqlangan. 1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, OU-350 ning eng yaxshi chiqish unumi 80-90 °C harorat oralig‘ida ro‘y beradi. OU-450 sintezi uchun maq‘bul harorat 130 °C hisoblanadi va reaksiyani 180 daqiqa davomida davom ettirish zarur (1 va 2-rasm).

**1-jadval**


**Olingan uretan oligomerlari eritmalarining qovushqoqlik ko‘rsatkichlari**

Oligouretan nomi	Eritma konsentrat siyasi %	$\eta_{\text{нис}}$	$\eta_{\text{сол}}$	$\eta_{\text{кел}}$	$\eta_{\text{ха}}$
OU-350 markali oligouretan	0,125	1,0147	0,0143	0,1139	0,1041
	0,250	1,0325	0,0327	0,1306	
	0,500	1,0777	0,0777	0,1552	
	1,000	1,1629	0,1628	0,1629	
OU-450 markali oligouretan	0,125	1,0133	0,0133	0,1047	0,1187
	0,250	1,0285	0,0284	0,1133	
	0,500	1,0579	0,0579	0,1155	
	1,000	1,1210	0,1210	0,1210	


1-jadvalda oligouretanlarning suyultirilgan eritmaları uchun qovushqoqlik ko'rsatkichlarini o'lchash natijalari bayon qilingan. Oligouretan eritmaları qovushqoqligini aniqlash uchun 22°C doimiy haroratda Ubbelod kapillyarli viskozimetrida turli xil eritmalar va toza erituvchining o'tish vaqtini o'lchashga asoslangan uslub qo'llanilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, UO-450 oligouretani U-350 oligouretaniga qaraganda ancha qovushqoqroq.

Sintez qilingan oligo-uretanlarning xromato-mass spektroskopiya natijalari tahlil qilindi. Xromato-mass spektri natijasiga ko'ra OU-350 oligouretanining eng katta makromolekulasining molyar og'irligi 560 ni tashkil qiladi (3-rasm). Sintez qilingan OU-450 oligouretanining eng katta makromolekulasining molyar og'irligi 660 ni tashkil qiladi (4-rasm).

Shunday qilib, xromato-mass spektroskopiya tahlillaridan olingan natijalarga asoslangan holda, uretan guruhlarni o'z ichiga oluvchi oligouretanlar sintezining samarali usullari yaratilgan. Reaksiyalarni o'tkazishning maqbul haroratlari, sintez jarayonlarining borish tartibi va ularning davomiyligi o'rnatilgan.



**3-rasm. OU-350 oligouretanining xromato-mass-spektri**



**4 rasm. OU-450 oligouretanining xromato-mass-spektri**


**Differensial termik analiz (DTA) va termik gravimetrik tahlil (TGA).** Differensial termal tahlil (DTA) differensial skanerlash kalorimetriga o'xshash termoanalitik usul bo'lib, DTA da sinov materiali va inert standart bir xil termal davrda parchalanadi va namuna va standart o'rtasidagi har qanday harorat farqi qayd etiladi. DTA termoparasi  $Al_2O_3$  inert materialga, ikkinchisi esa tekshirilayotgan materialning namunasiga joylashtiriladi. Haroratning oshishi bilan, namuna fazali o'tishni boshdan kechirsa, voltmetrning qisqa muddatli og'ishi kuzatiladi, ya'ni issiqlik kiritish inert materialning haroratini oshiradi, lekin materialning o'zgarishi bosqichida yashirin issiqlik sifatida kiritiladi. Jarayon inert gazlar geliy yoki argon inert gaz muhitida olib boriladi.

Karbamid va formaldegid asosidagi oligouretanning termik tahlili 20-500 °C da o'rganildi. KFU ning termogravimetrik tahlili uchun 3,14 mg elastomer olindi va jarayon 20-500 °C harorat oralig'ida o'rganildi. Elastomerning termik tahlilining natijalari 5-rasmda keltirilgan.

Sintez qilingan elastomerning DTA tahlilida uch sohada massa yo'qotish yuz bergan va bitta ekzotermik hamda bitta endotermik jarayon yuz bergan.

Moddalarni parchalanishining birinchi bosqichda 136,03 °C da boshlanib, bunda 1,0 mg yoki 29,32 % massa yo'qotishi kuzatildi. Bu parchalanish ortiqcha formaldegid va suvning chiqib ketishi bilan tushuntiriladi.

Ikkinchi bosqichda 281,00 °C da boshlanib, bunda 0,714 mg, 22,74 % massa yo'qotilishi bilan tugallandi. Bu haroratlar oralig'ida (C=O) va (NH-CH<sub>2</sub>) guruhlarning parchalanishi natijasida uglerod (II) oksidi ajraladi.



5-rasm. KFU ning DTA tasviri

Uchinchi bosqich asosiy parchalanish bosqichi bo'lib, 319,19 °C da 1,242 mg yoki 36,063 % massa yo'qotilishi kuzatildi. Bunda organik birikmalar parchalanishidan uglerod qoladi.

DTA tahlili xulosasiga ko'ra, karbamid, formaldegid va gliserin asosidagi elastomer IQ-spektroskopiya tahlilidagi bog'larga mos parchalangan.

Differensial-termik va termogravimetrik tahlil. Olingan poliuretanning DTA tahlili shuni ko'rsatdi, uchta ekzotermik cho'qqi 187,14 °C, 237,32 °C va 283,76°C larda. Endotermik jarayon kuzatilmagan. 187,14 °C va 237,32 °C dagi ekzotermik cho'qqilar molekula tarkibidagi ammoniy ioni parchalanishi hisobiga paydo bo'lgan. Bu ekzotermik jarayonlar uchun energiya quvvati mos ravishda -226,08 mcal ni (-946,39 mj) tashkil etadi. 283,76 °C da hosil bo'lgan ekzotermik cho'qqi esa uglerod kislorod parchalanishi yoki kovolent bog'larning uzilishi natijasida kuzatilgan. Olingan poliuretanning TGA natijalariga ko'ra modda ikki bosqichda parchalangan.

Dissertasiyaning "Oligouretan asosidagi poliuretanlarning, tuzilishi va polimerlarining xossalari" deb nomlangan uchinchi bobida yuqorida ko'rsatilgan oligouretanlar asosida ftalliuretan polimerlarini olish va ularning adgezion, deformasion-mustahkamlik, va termomexanik xossalari muhokama qilinadi.


Ftalliuretan polimerlarini olish uchun ftal angidirid va oligouretanlarini jadal ravishda bir jinsli massa hosil bo'lgunga qadar gomogenizatorida aralastiriladi. Aralashma ftal angidirid bilan harorat yordamida o'zaro reaksiya kirishadi.

KFU va FU qisqartmalari poliuretan polimerlarini bildirib, ularni tayyorlashda karbamid konsentrati yoki karbamid asosida olingan oligouretan qo'llanilganligini bildiradi. Markalardagi sonlar tayyor poliuretan polimeridagi oligouretanning massa ulushiga muvofiq keladi.


5-rasmdagi OU-350ning IQ spektrida -NH<sub>2</sub> guruhlariga mos keladigan 1531,48 sm<sup>-1</sup> mintaqasida yutilish zonasi mavjud. 846,75 sm<sup>-1</sup> mintaqasidagi yutilish zonasi C-N guruhlarining cho'zilgan tebranishlariga mos keladi. C-O-C guruhi 1265,30 sm<sup>-1</sup> mintaqada assimetrik cho'zish tebranishlarini keltirib chiqaradi. 1373,32 sm<sup>-1</sup> mintaqadagi assimilyatsiya chizig'i almashtirilmagan uretan guruhining mavjudligini ko'rsatadi. IQ spektri 3346,50 sm<sup>-1</sup> mintaqasida keng va kuchli yutilish zonalarini ko'rsatadi. Vodorod bog'lanishi natijasida so'rilish bu mintaqada elastomer holatida sodir bo'ladi.

IQ spektroskopiya natijalari KFU molekulasida (-NH-CH<sub>2</sub>-) guruhleri mavjudligini ko'rsatadi, IQ spektrlarining dekodlanishiga ko'ra, (-C=O-) guruhleri mavjudligini ko'rish mumkin. Bu shuni anglatadiki, elastomer makromolekulasi nafaqat zanjirning chetlarida, balki ichki segmentlarida ham (-C=O-) va (-NH-CH<sub>2</sub>-) guruhlarini o'z ichiga oladi. Karbonat (-O-CO-O-) guruhining mavjudligi ba'zi almashtirilmagan (-C=O-) va (-NH-CH<sub>2</sub>-) guruhleri gliserinning gidroksil guruhleri yoki elastomer makromolekulalarining terminal gidroksil guruhleri bilan reaksiyaga kirishganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, IQ spektroskopiya tadqiqotlari asosida, elastomerni sintez qilish maqsadida olib borilgan reaksiyalar asosida chiziqli va ozgina shoxlangan turdagi oligomerik birikmalar olingan degan xulosaga kelish mumkin. Elastomerning chetlarida almashtirilmagan gidroksil guruhleri bo'lishi mumkin.

IQ-spektroskopiya natijalari ftal angidiridi reaksiyaga to'liq kirishib ketganini ko'rsatdi.



6-rasm. U-350 oligouretan asosidagi ftalliuretan polimerining IQ-spektri.




7-rasm. U-450 oligouretan asosidagi ftalliuretan polimerining IQ-spektri.

IQ-spektr tahlillari IQ spektri zaif yutilish zonalarini o‘z ichiga oladi 2920.3 - 2852.72 da -C-H aloqalarining cho‘zilgan tebranishlari  $\text{sm}^{-1}$  mintaqasi va gidroksil guruhlarining egilish tebranishlari  $1037,70 \text{ sm}^{-1}$  hududi.  $1616,35 \text{ sm}^{-1}$  mintaqadagi yutilish zonasi -CO-NH<sub>2</sub> guruhining mavjudligini tushuntiradi. IQ spektri -NH<sub>2</sub> guruhlariga mos keladigan  $1653,00 \text{ sm}^{-1}$  mintaqasida 59-so‘rilish zonasini o‘z ichiga oladi.  $854,47 \text{ sm}^{-1}$  mintaqadagi yutilish zonasi cho‘zilgan tebranishlarga mos keladi. C-N guruhleri. C-O-C guruhi  $1173,68 \text{ sm}^{-1}$  mintaqada assimetrik cho‘zish tebranishlarini keltirib chiqaradi.  $1247,94 \text{ sm}^{-1}$  mintaqasidagi yutilish zonasi -O-CO-O- guruhlarining cho‘zilgan tebranishlariga to‘g‘ri keladi.  $1732,08 \text{ sm}^{-1}$  mintaqasidagi yutilish zonasi almashtirilmagan uretan guruhining mavjudligini ko‘rsatadi.


Elastomerlar ko‘pincha polimer kompozit materiallar uchun yopishtiruvchi, qoplama va bog‘lovchi sifatida ishlatiladi. Ushbu tajribada karbamid, formaldegid va glitserin asosida sintezlangan elastomerning adgezion kuchi aniqlandi.

Shu sababli 1-4 markali elastomerdan tayyorlangan kompozit materiallarning deformatsiya va cho‘zilishga bardoshlilikini o‘rgandik (4-5 rasm). Buning uchun o‘lchami 10x15 sm bo‘lgan polimer qoliplar tayyorlanib, unga sintez qilingan elastomerni quyib olinadi. Qotgan namunalarning elastiklik va deformatsion xossalari o‘rganildi.




**8-rasm. KFU tarkibli poliuretan namunalarning cho‘zilishga – egilishga bardoshlilik**

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, qo‘shimchaning miqdori ortishi materialning yuk ko‘tarish qobiliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. KFU-10 namunasi maksimal kuchlanish qiymatiga erishib, eng yuqori mustahkamlikni namoyon etadi, bu esa polimer zanjirlarining yuqori darajada o‘zaro bog‘langanini bildiradi. KFU-5 namunasi o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, kuchlanish va elastiklik bo‘yicha barqaror xatti-harakatni ko‘rsatadi. KFU-0 tarkibli poliuretan esa minimal kuchlanish qiymatini qayd etib, qo‘shimcha kiritilmagan holdagi polimer matritsasining pastroq mexanik xususiyatlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu tariqa, qo‘shimcha konsentratsiyasining ortishi materialning strukturaviy mustahkamligini oshirishi tasdiqlangan.




**9-rasm. OU-350 asosida olingan poliuretanning SEM tasviri.**



**10-rasm. OU-450 ning DTA tasviri.**

Differensial-termik va termogravimetrik tahlil. Olingan poliuretanning DTA tahlili shuni ko‘rsatdi, uchta ekzotermik cho‘qqi 187,14 °C, 237,32 °C va 283,76 °C larda. Endotermik jarayon kuzatilmagan. 187,14 °C va 237,32 °C dagi ekzotermik cho‘qqilar molekula tarkibidagi ammoniy ioni parchalanishi hisobiga paydo bo‘lgan. Bu ekzotermik jarayonlar uchun energiya quvvati mos ravishda -226,08 mcal ni (-946,39 mj) tashkil etadi. 283,76 °C da hosil bo‘lgan ekzotermik cho‘qqi esa uglerod kislorod parchalanishi yoki kovalent bog‘larning uzilishi natijasida kuzatilgan. Olingan poliuretanning TGA natijalariga ko‘ra modda ikki bosqichda parchalangan.



**11- rasm FU kompozitining cho‘zilishga- egilishga bardoshlilik**


## 2-jadval

### Mustaxkam poliuretan polimerlarining Brinelli usuli bo'yicha qattqlik, qayishqoqlik va plastiklik ko'rsatkichlari

Namunalar raqamlari	Nomi	Qattqlik, MPa	Qayishqoqlik , %	Plastiklik , %
Qattiq poliuretan				
1	FU-1%	16,9115	85,2	14,8
2	FU-2%	14,2246	51,8	48,2
3	FU-3%	46,3297	70,7	29,3
4	FU-1%+M	5,94482	61,3	38,7
5	FU-2% C <sup>0</sup>	12,1271	51,8	48,2

Sintez qilingan OU-450 asosida olingan poliuretanlarning Brinell usuli bo'yicha qattqlik, qayishqoqlik va plastiklik qiymatlari o'rganildi.

2-jadvalga ko'ra, sintez qilingan poliuretan polimerlarining barcha namunalarida qattqlik, tarkibida qo'shilgan bazalt minerali miqdoriga qarab o'zgarganini ko'rishimiz mumkin. Poliuretan tarkibida oligomer miqdori ortishi qayishqoqlik darajasini ortishiga olib keladi va plastiklik xususiyatiga teskari ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Sintez qilingan poliuretanni SEM usulida o'rganildi va morfologik tahlil qilindi.



**12-rasm. OU-450 asosida olingan poliuretanning SEM tasviri.**

Yuqoridagi keltirilgan rasmdan ko'rishimiz mumkinki, sintez qilingan poliuretan morfologik tuzilishi va unga bazalt mineralining modifikatsiyalanganligini ya'ni aralashgan darajasini 250 va 650 marta kattalashtirilgan holda ko'rishimiz mumkin. Bunda bazalt minerali poliuretan tarkibida aralashgan holda uning mustahkamlik darajasiga o'zining ijobiy ta'sirining bergani ma'lum bo'ldi.

Shunday qilib, olingan poliuretan polimerlarining tuzilishi kinetik, fizik-mexanik, va termomexanik xossalarni solishtirish bilan izohlandi. Deformasion va boshqa fizik-mexanik xossalarga qotish darajasining ta'siri ko'rsatilgan. Polimerning yuqori qayishqoqligi hattoki uning past mustahkamlik xossalarni ko'rsatganda ham ishqalanish koeffisientining pasayishiga olib keldi.


Dissertasiyaning "Oligourethan va poliuretanlar olishning iqtisodiy samaradorligi va texnologik sxemasi" deb nomlangan to'rtinchi bobida poliuretan

qoplama va uretansaqlovchi elastomerlar ishlab chiqarish texnologiyasi muhokama etiladi. Olingan poliuretanlarni tadbiq etishda solishtirma va umumiy iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqilgan.

Termiz davlat universiteti qoshida tashkil etilgan ilmiy tadqiqot markazida mahalliy xomashyolar asosida OU-350 va OU-450 markali oligouretanlarni ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqildi. 13-rasmda oligouretanlarni ishlab chiqarishning texnologik sxemasi tasvirlangan.

Ishlab chiqarish di - yoki poliizosianatlarsiz usulda hamda past haroratda va yuqori bosimlardan foydalanmagan holda ancha soddalashtirilgan usul bilan tarkibida uretan guruhi bo'lgan oligomerlarni olish taklif etilayotgan usulning farqlanuvchi alomatlari hisoblanadi.

Ikkala uretan oligomerlarni ishlab chiqarishda ham ammiak ajralib chiqadi. Atmosferaga zararli gazlarning chiqishiga yo'l qo'ymaslik uchun reaktorga qo'shimcha uskunalar ulangan. Teskari sovutgich 16 bilan absorber 10 ammiakni suvga singdirish uchun xizmat qiladi. Ammiakdan tashqari absorber idishiga vakuum nasos 8 yordamida reaktson massadan tarkibida ammiak qoldig'i va reaksiyaga kirishmagan formalin bo'lgan suv haydaladi. Ammiak va reaksiyaga kirishmagan formalin bilan to'yintirilgan suv absorber idishidan rektifikasion sexga nasos 11 bilan yuboriladi.



1-reaktor; 2-glitserin uchun sig'im; 3-karbamid-formaldegid konsentrati uchun sig'im; 4-mochevina uchun bunker; 5-formalin uchun sig'im; 6-natriy gidroksid eritmasi uchun sig'im; 7-qaytarma sovutkich; 8-vakuum nasos; 9 - sovutkich; 10-absorber; 11, 12 - nasoslar; 13 - vintil; 14-bug'qozoni; 15 - smolani sekin sovutish uchun sig'im, 16-absorberning qaytarma sovutkichi.

### **13-rasm. Oligouretanlar ishlab chiqarishning texnologik sxemasi.**

Ishlab chiqilgan oligouretanlar va poliuretanlarning zanglashga qarshi qoplamalar, ishlab chiqarishda qo'llanilishining iqtisodiy samaradorligini baholash poliuretan tannarxining import analoglarining tannarxi bilan solishtirishni ko'zda

tutadi.3-jadvalda poliuretan polimerlari va import qilinuvchi poliuretan polimerning narxlari solishtrildi

3-jadval

**OU-350 asosida olingan poliuretan material narxlari**

Xomashyo	1 kg xom ashyo narxi, so'm	1 tonna oligomer olish uchun xomashyo, kg	Summasi
Karbamid-formaldegid konsentrati	1215	813	987795
Glitserin	32 000,0	152	2432000
Ftal angidirid	19 100	32	611200
Jami			6 462 995,00

4-jadval

**OU-450 asosida olingan poliuretan material narxlari**

№	Xomashyo	1 kg xom ashyo narxi, so'm	1 tonna oligomer olish uchun xomashyo, kg	Summasi
1	Karbamid-	3600	547	1969200
2	Glitserin	32 000,0	92	2944000
3	Formaldegid	3000	722	216 600
4	Ftal angidirid	19 100	27	515700
Jami				5 645 500

5-jadval

**OU-350 asosida olingan poliuretanning narxlari**

Xarajatlar tarkibi	Narxi, so'm
Ish haqi, so'm	1854210
Ijtimoiy soliq, 1 %	18542,1
Materiallar	6 462995,0
Qo'shimcha xarajatlar	337976
Foyda, 10 %	867000
Jami	9540723
QQS, 12 %	1 617191,98
Jami	11 157 914,98

6-jadval

**OU-450 asosida olingan poliuretanning narxlari**

Xarajatlar tarkibi	narxi, so'm
Ish haqi, so'm	1854210
Ijtimoiy soliq, 1 %	18542,1
Materiallar	5 645 500
Qo'shimcha xarajatlar	337 976
Foyda, 10 %	785 000
Jami	8 641 222
QQS, 12 %	1 617191,98
Jami	10 258 419,1

## **XULOSALAR**

1. Di- yoki poliizosiyanatlardan foydalanmagan holda kimyoviy transformatsiyalash karbamid-formaldegid konsentrati, glitserin, karbamid va formalin asosida uretan guruhlari bo'lgan oligomerlarni ishlab chiqarish texnologiyasi taklif etildi.

2. Sintezlangan oliguretanlar va ftal angdiridi asosida yuqori yopishtiruvchi, korroziyaga qarshi va deformatsiyaga chidamlilik xususiyatlariga ega bo'lgan o'zaro bog'langan oligouretan-ftalli va oligouretan elastomerli polimer kompozitsion materiallarni ishlab chiqarish usuli ishlab chiqildi.

3. Poliuretan polimerlarini to'ldirilgan polimer kompozit materiallarni olishda bog'lovchi yoki matritsa sifatida qo'llash imkoniyati, oligouretanlarning ftal angdiridi bilan kimyoviy reaksiyasida moddalarining tabiatining ta'siri yo'qligi aniqlandi.

4. Oligouretan asosidagi poliuretan konstruksiyaning hosil bo'lish sxemasi, shuningdek, oligouretanlarning poliuretan polimerlari va ular asosidagi polimer kompozitsiyalarining deformatsiyaga chidamlilik xossalariga ta'siri ko'rsatilgan.

5. Tarkibida uretan guruhlari bo'lgan oligomerlarning ftalliuretan polimerlarining ishqalanish koeffitsientiga ta'siri ko'rsatilgan. Tajribalar doimiy yuk ortishi bilan va ftalliuretan polimer namunalarning ishqalanish koeffitsienti oshishini ko'rsatdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.01.2023.К/Т.78.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**САФАРОВ АЗАМАТ МАМАТАЛИ УГЛИ**

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ПОЛИУРЕТАНА  
БЕЗИЗОЦИАНАТНЫМ СПОСОБОМ НА ОСНОВЕ  
КАРБАМИДОФОРМАЛЬДЕГИДНОГО КОНЦЕНТРАТА**

**02.00.14–Технология органических веществ и материалы на их  
основе**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Термез – 2025**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.3.PhD/T5838.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Ученого совета ([www.tergu.uz](http://www.tergu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Аликулов Рустам Валиевич</b> доктор химических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Соттикулов Эльёр Сотимбоевич</b> доктор технических наук, старший научный сотрудник  <b>Эшмуродов Хуршид Эсаибердиевич</b> доктор философии по техническим наукам, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Бухарский государственный университет</b>

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета при Термезском государственном университете под номером DSc.03/31.01.2023.K/T.78.01 «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года в \_\_\_ часов. Адрес: 190111, г. Термез, ул. Баркамол Авлод, дом 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, эл. почта: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (регистрационный номер № \_\_\_). Адрес: 190111, г. Термез, ул. Баркамол Авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, эл. почта: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.

Регистрационный номер протокола \_\_\_\_\_ от «\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г.



**И.А.Умбаров**  
Председатель Ученого совета по  
присуждению ученых  
степеней, д.т.н., проф.

**Ш.А.Касимов**  
Ученый секретарь Ученого совета по  
присуждению ученых  
степеней, д.х.н., проф.

**Л.С.Камолов**  
Председатель научного семинара  
при Ученом совете по присуждению ученых  
степеней, д.х.н., проф.

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня в мире полимерной химии и технологии композитных материалов возрастает потребность в безопасных, экологически чистых и высокоэффективных жестких уретановых эластомерах для использования в автомобильной, машиностроительной, строительной, радиоэлектронной, бытовой технике и ряде других отраслей промышленности. В связи с токсичностью ди- и полиизоцианатов, широко используемых в производстве традиционных полиуретанов, необходимостью повышения мер безопасности при эксплуатации и значительным влиянием на производственные затраты, замена их альтернативными реагентами является важной научно-технической задачей. Поэтому совершенствование технологий получения олигомеров с уретановыми группами, не содержащими изоцианатов, имеет большое значение.

В мире ведутся научно-исследовательские работы по дальнейшему улучшению функциональных свойств полиуретановых полимеров и разработке экологически безопасных и эффективных технологий их производства. В этой связи особое внимание уделяется разработке новых, не содержащих изоцианатов методов химической трансформации для синтеза олигомеров, образующих уретановые группы без использования традиционных ди- и полиизоцианатов, а также разработке технологий получения уретановых олигомеров без изоцианатов на основе мочевино-формальдегидного концентрата, глицерина, мочевины и формалина.

